

“Tasdiqlayman”

Transport vazirligi huzuridagi

Jamoatchilik kengashi raisi


D. Yakubova

2024-yil 8 - iyul

**Transport vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig'ilishining**

2-sonli BAYONI

2024-yil 5-iyul

Toshkent shahri

Raislik qildi: Yakubova Dilbahor Sharipovna - O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudi raisi o'rinbosari

Ishtirok etganlar: Jamoatchilik kengashi a'zolari, Transport vazirligi xodimlari, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi vakillari

KUN TARTIBI:

O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi tomonidan o'tkazilgan Transport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatining monitoringi natijalari muhokamasi.

(Yakubova, Nurboboyev, Faxriddinov, Xaydarova, Jamoatchilik kengashi a'zolari)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Jamoatchilik kengashi kotibi G. Alimbayeva joriy yilning 27-31-may kunlari O'zbekiston Respublikasi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasiga asosan Transport vazirligi tomonidan Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashining faoliyatini yo'lga qo'yish holatini o'rganish bo'yicha monitoring o'tkazilganligi to'g'risida olib bordi. Monitoring axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirilganligi va uning natijalari yuzasidan Transport vazirligiga xulosa taqdim etilganligi ma'lum qilindi.

O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi vakili Ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazorati bo'lim boshlig'i H. Nurboboyev so'zni olib, xulosaning asosiy holatlari borasida axborot berdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-2025-yillarda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son Farmoniga muvofiq jamoatchilik kengashlarining umumiy

a'zolari soni 15 nafardan kam bo'lmasligi belgilangan. Shu bilan birga, mazkur Farmonda davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari tarkibining kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) vakillari tashkil etishi qayd etilgan. Fuqarolar tashabbusi bilan tashkil etilgan NNT vakillarining soni (jami jamoatchilik kengashlari tarkiblariga kiritilgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining soniga nisbatan) 25 foizgacha yetkazilishi lozimligi belgilangan.

Transport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining tarkibi yuqoridagi talablarga javob bermasligi ko'rsatib o'tildi.

Kengash a'zolari tomonidan O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining xulosasi muhokama qilindi. Kengash raisi D.Yakubova Kengash faoliyati to'g'risida ma'lumot berdi va xulosa yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini bildirdi. Kengash a'zolari Kengash tarkibini qayta ko'rib chiqib, uni yangi a'zolar bilan to'ldirishga qarshiligi yo'qligini ma'lum qildi.

O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi vakillari Kengashning yangi tarkibini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son Farmoniga muvofiq shakllantirishda amaliy yordam ko'rsatishga tayyorligini bildirdi. Yig'ilish ishtirokchilari tomonidan berilgan savollarga H.Nurboboyev tomonidan batafsil javoblar qaytarildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash a'zolari tomonidan Transport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining tarkibini qayta ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son Farmoni talablariga muvofiqlashtirgan holda yangitdan tasdiqlash qaror qilindi.

Kengash kotibi



G.Alimbayeva